



O'ZBEKISTON VA TURKIYA: TIKa FIRMASI BILAN OLIB BORGAN HAMKORLIKLAR

Sobirova E'zozxon Roziqjon qizi

TDSHU 2-bosqich talabasi

ezozxonsobirova18@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6055328>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-yanvar 2022

Chop etildi: 5-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

TIKA, aviatsiya, innovatsion, urologiya, genekologiya

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolam orqali O'zbekiston va Turkiya Respublikalarining deyarli 30yilda buyon hamkorligi, yoritib berishga harakat qildim. Turli sohalardagi shartnomalar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarini rivojlantirishiga yanada mustahkamlanishiga turki bo'lganini ochib berdim. Bu sohalardagi amalga oshirilgan loyihalardan biri TIKA tomonidan amalga oshirilgan juda ko'p programlar haqida, bu programlar yurtimizni rivojlanishiga katta turki bo'lganini ko'rishimiz mumkin

Dunyodagi hamma davlatlar bir-birlariga suyanib yoki birgalikda hukm surushadi. O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda o'z mustaqillik e'lon qilarkan, Dunyon hamjamiyati oldida yosh boladay turardi go'yo maydonga chiqqan go'dakdek edi. Ota yurtimiz deb madh etadigan xalq Turkiya bizga do'stlik qo'lini uzatdi. O'zbekiston Respublikasining musqaqilligini tan olib, ikki Davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatilgach, 1992yil aprelda Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993-yil yanvarda esa O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Istanbul O'zbekiston Respublikasining bosh konsulxonasi ochildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov Turkiya bilan munosabatlari 1991-yil dekabrda, 1994-yil iyun va 1997-yil noyabrda rasmiy tashriflari bilan yanada mustaxkamlanadi. 1998-yil oktabrda Turkiya Respublikasining 75 yilligiga o'tkazilgan katta tantanada prezidentimiz ishtirok etadi. O'z navbatida, Turkiya

Prezidentlari Turg'ut O'zal, Sulaymon Demirel va boshqa davlat arboblari bir necha bor rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldilar. Ana shu tashrif va muloqatlar natijasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasida "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy ilmiy-texnikaviy, harbiy va harbiy-texnikaviy aloqalar, terrorizm va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, huquqiy yordam, sog'liqni saqlash, transport, sayyohlik, madaniyat va boshqa sohalarda 78 hujjat imzolandi.

O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2000-yil sentabrda Turkiya Prezidenti Ahmet Necdet Sezer bilan BMTning "Ming yillik" sammiti doirasidagi uchrashuvi ikki tomonlama aloqalarda muhim ahamiyat kasb etdi. 2003-yilda Turkiya Bosh vaziri Rajab Tayyip Erdo'g'on O'zbekistonga keldi. Tashrif davomida yana bir qancha hujjat imzolandi. Jumladan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik va diplomatik pasport egalari



uchun vizalarni bekor qilish haqida hukumatlararo bitim tuzildi. O'zaro aloqalar xalqaro tashkilotlar doirasida ikki davlatning parlamentlari va vazirliklari o'rtasida ham davom etdi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi bitimlar bilan muvofiqdashtirildi. Ikki tomon o'rtasida bojxona to'lovlariga nisbatan eng ko'p kulaylik berish tartibi kuchga kirishi tufayli 2002-yil O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi tovar aylanmasi 1,7% o'sib, 190,48 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2003-yilda 2002-yilga nisbatan 41,3% oshdi, umuman O'zbekistonning tashki savdo tovar aylanmasida Turkiyaning ulushi 4% ni tashkil etadi. Turkiya O'zbekistondan rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar, ip gazlama, trikotaj mato, paxta tolasi, oziq-ovqat (meva va yong'oq) oladi va O'zbekistonga mexanik uskunalar, yer osti transport vositalari, optik jihoz va uskunalar, mebel, elektr asboblari, plastmassa buyumlari, kimyoviy mahsulot, gilam va boshqa yuboradi. Ayni paytda umumiy qiymati salkam 1 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan (bu mablag'ning yarmini Turkiya Eksimbanki bergan) 16 loyihani birgalikda amalga oshirishga kirishildi. Chunonchi jun yigirish, mayin jun matolar va shu kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Kosonsoy Tekmen" qo'shma korxonasini barpo etish (loyiha qiymati 76 mln. AQSH dollari), Xorazm viloyatida trolleybus liniyasini qurish (loyiha qiymati 7,7 mln. AQSH dollari), shakar zdini qurish (loyiha qiymati 82,2 mln. AKTJJ dollari) kabi loyiqalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistondagi bir qancha mehmonxonalarini qayta qurish va ta'mirlashda Turkiyaning "AySel", "Ulus inshaat", "O'qan xolding", "Emesam"

firmalari ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasida Turkiya sarmoyasi ishtirokidagi 351 qo'shma korxonalar bor, ulardan 71 tasi 100% turk sarmoyasi bilan tashkil etilgan korxonadir. Qo'shma korxonalar orasida "SamKochavto" (avtobus va o'rta hajmdagi yuk mashinalari ishlab chiqarish.), "Papfen" (paxta tolasidan ip yigirish), "Koxis" (savdovositachilik faoliyati, "MetroMarket" supermarketi), "SharqMir LTD" (chakana savdo), "Mejik Plast" (plastik oyna romlari ishlab chiqarish.), yakka tartibdagi korxonalar orasida esa "Beta Algoritm" (choy qadoklash), "Dilek Interprayzis", "Aylin gida sanai va anonim shirkati" (ikkovi qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish.) eng yiriklari hisoblanadi. Hamkorlikda tashkil etilgan korxonalarining 70% ga yaqini respublika ichki bozorida savdovositachilik faoliyatini olib boradi, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hamda texnik maqsadga mo'ljallangan mahsulotlarni O'zbekistonga kiritish va sotish bilan shug'ullanadi. 25% dan ziyod korxonalar esa to'qimachilik va ko'ncilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish mollari va boshqa soxalarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradi. Korxonalarining qolgan qismi xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Turkiyada o'zbek sarmoyasi ishtirokida 2 korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi hamkorlik ham samaralidir. Chunonchi, xorijlik hamkorlar bilan birgalikda Orol dengizining qurigan Femida o'rmonchilikni tashkil etish va kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihada turk tomoni ham o'zining ishtirok etishini bildirdi. Mazkur loyihani amalga oshirishga hissa qo'shish uchun Turkiya 2 dona MB Trac 1100 Mercedes traktori va boshqa texnik jihozlar ajratdi. Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik O'zbekiston va Turkiya



o'rtasida madaniyat, ta'lim, sog'liqni saklash, sport va turizm sohalaridagi hamkorlik to'g'risidagi bitim (1991-yil 19 dek.), madaniy aloqalar to'g'risida hamkorlik bitimi (1993-yil 22-iyul), ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim (1995-yil 9-iyul) asosida rivojlanib bormoqda.

1993-yil Turkiyada O'zbekiston madaniyat kunlari o'tkaziddi va unda respublikamizning 60 nafar madaniyat va san'at vakillari ishtirok etdi. 1994-yil oktabrda 48 kishidan iborat turkiyalik san'atkorlar guruxi "Turk dunyosi madaniyati va shodligi kunlari" doirasida O'zbekistonga tashrif buyurib, Toshkent va Samarkand shaharlarida konsertlar berdi. O'zbekiston davlat konservatoriyasi bilan Anqaradagi Bilkent unti o'rtasida malaka oshirish, tajriba va mutaxassislar almashish, qo'shma konsertlar tashkil etish borasida o'zaro hamkorlik o'rnatilgan. Samarqandda o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida turkiyalik san'at ustalari ham muntazam qatnashib kelmoqdalar. O'zbekistonda "Uzbekistan— Turkiya" do'stlik jamiyati bu sohadagi ishlarga samarali hissa qo'shmoqda.

Fan va texnika sohasida O'zbekiston Fan va texnologiyalar markazi bilan T.ning fan va texnik tadqiqotlar kengashi o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Keyingi yillarda o'zbekistonlik olimlar yadro fizikasi, biologiya, ekologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda Turkiya ilmiy markazlari tomonidan o'tkaziladigan konferensiya va simpoziumlarda muntazam ishtirok etib kelishmoqda.

2021-yil 7-mart kuni Samarqand shahrida Turkiyaning bosh konsulligi ochildi. ochilish marosimida O'zbekiston bosh vazir o'rinbosari Aziz Abduxakimov, tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov, Turkiyaning

tashqi ishlar vaziri Mavlud Chovusho'g'li va Samarqand viloyati hokimi Erkin Turdimov ishtirok etgan. Turkiyaning Samarqanddagi bosh konsulxonasi rahbari Salih Janer O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun Samarqand shahrida Turkiyaning bosh konsulxonasi binosi ochilishini ta'kidlagan.

2021-yil 17-mart kuni Shavkat Mirziyoyevning «Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2020-yil 27-oktabrda Toshkent shahrida imzolangan O'zbekiston hukumati bilan Turkiya hukumati o'rtasida harbiy-moliyaviy hamkorlik to'g'risidagi Bitim hamda moliyaviy ko'makni amalga oshirish to'g'risidagi Bayonnoma tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari mazkur xalqaro shartnomalar kuchga kirgandan so'ng O'zbekistonning majburiyatlarni bajarilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston va Turkiya harbiylari Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Janubiy operativ qo'mondonligi Termiz dala-o'quv maydonida maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. O'zbekiston va Turkiya mudofaa vazirlarining ikki tomonlama harbiy hamkorlik rejasiga asosan 22-mart, dushanba kuni maxsus-taktik mashg'ulotlarining ochilish marosimi bo'lib o'tgan va 27-martga qadar davom etgan.

O'zbekiston va Turkiya Respublikalari o'rtasida aloqalarni yanada yaxshilash maqsadida ko'plab shartnomalar imzolangan. Ularning qatorida eng katta o'rin egallagan TİKA firmasi 1992yil davomidan boshlab faoliyat yuritadi. Masalan, bizning Unversitetimizga Turk biznes va Koordinatsion Ajansi vazirligi



bilan Anqaradagi Yildirim Boyazd Universiteti va Gazi Üniversitesi birgalikda 29 noyabr - 11 dekabr kunlari 2021-yil Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universitetida "Biznes dunyosi talim program (İŞDEP) - Biznes turkcha ta'lim" mavzusida 40 soatlik ta'lim programi bo'lib o'tdi. Bu programda shaxsan o'zim qatnashib, "Omadli o'quvchi" sertifikatiga ega boldim. Universitetimiz talabalari o'rtasida 4 sohada ta'lim bergani Turkiyadan 4 o'qtuvchi jalb etildi. Bulardan Ahmet Gürkan Karataş, Mustafa Tekili, Ahmet Tayfun O'ztürk ve Mert hocalar kelishdi. 10 kun davomida O'zbekistondan yaxshi xotiralar bilan qaytib ketishdi. Yurtimizning "salqali ro'yi zamin" Samarqandimizga ziyoratga borishdi. Ustozlar bu yerda ekan ulardan o'zimiz uchun foydali bilimlarni oldik.

Shu o'rinda TİKA tarixiga to'xtalsak, 1992-yildan 2002-yillarda O'zbekiston va TİKA o'rtasida projeler yanada tezlashadi. Yana ayta olamanki, bu firma O'zbekistonni O'rta Osiyodagi munosabatlarini yanada mustahkamlashga ham bir ko'prik bo'ldi desam adashmayman. TİKA O'zbekistonda xususan, sog'lik, ta'lim va biznes va harbiy sohalarni rivojlantirishda ishlar olib borilmoqda. Bir necha faktlarni keltirib o'tishni lozim deb bildim;

- 1993-2002-yillar davomida TİKA va O'zbekiston o'rtasida 190 proje mavjud;
- 2004-yilda TİKA ofes pratakolu imzolandi;
- 2003-2017-yillarda TİKA va O'zbekiston o'rtasida 497 ta projelar mavjud;
- 2016-yil 17-18-noyabrda Turkiya Respublikasining Prizidendi Recep Tayyip Erdog'an O'zbekistonga qilgan tashrifida O'zbekiston Respublikasining Prizidendi Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashadi;

- 2017-yil 25-27 oktabrda Turkiya-O'zbekiston KEK majlisi Toshkentda bo'lib o'tdi;

- 2017-yil 23-27- noyabrda Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev oradan 20-yil o'tib Turkiyani ziyorat etdi va TİKA ofes pratakolu yangilandi, Anqarada;

- 2017-yil 17-20-dekabrda TİKA boshlig'i Dr. Serdar Jam, O'zbekiston Respublikasining Prizidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qildi;

- 2018-yil birinchi choragida 35ta proje qabul qilindi.

TİKA tarafidan O'rta Osiyoning 32million aholisi mavjud bo'lgan eng katta o'lka O'zbekistonga ilk yordam va O'zbek xalqini yanada aniq va samarali ish olib borishi maqsadida 2018 yil 50 ta tez yordam mashinalari taqdim etildi. Hamam mashinalar texnologik jihatdan talab darajasida bo'lgan va Turk Mali tomonidan ko'ngillilar, defibliatori bo'lgan butun birinchi yordamni ko'rsata oladigan mashinalar berildi. Bundan tashqari, O'zbekiston tibbiy infratuzilmasini rivojlantirish va yangidan zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash maqsadida 90 adet pul va yangi jihozlar keltirildi. Bularni orasida: 30 ventilatsion jihozlar, 110 monitor, 110 infruz nasos, 10 nurda isitilgan yotoqlar TİKA tomonidan olib kelindi. Bu jihozlarni turli kasalxonalariga tarqatildi. Masalan, Toshkent viloyati Perinital markazi, Samarqant tez yordam markazi, Samarqant viloyati Perinital markazi, Buxoro Multidisipliner kasalxonasi Buxoro viloyati Perinital markazi, Buxoro Multidisipliner bolalar kasalxonasi, Suxandaryo viloyati Perinital markazlariga berildi.

TİKAning loyihalari yuzasinda O'zbekistonda plastik operatsiyalar ham o'tkazildi. 2009-yilda Qoraqalpog'iston muxtor Respublikasi, Samarqand,



Namangan, Buxoro, Farg'ona va Termiz shaharlarida amalga oshirilishi mavzusidagi loyihaga doirasida, 9 yil ichida 3.500 bola va yoshlar tekshirishdan o'tkazildi va amalyot qilinishi lozim bo'lgan 860 bola va yoshlar jarrohlik operatsiyalari o'tkazildi. O'zbekistonda davolanmaganlar Turkiyadagi kasalxonalariga o'z dardlariga davo topdilar. 2018- yilda Plastik Operatsiya loyihasi bo'yicha 4-16-aprelda 765 bola tekshirishdan o'tkazildi, Operatsiya qilinishi lozim bo'lgan 157ta bola-yoshlar amaliyot o'tkazildi. Yana shuni qo'shimcha qila olamanki, O'zbekiston va Turkiya tibbiyot vazirligida TIKAning koordinasyonunda 2017-yilning 3-7 iyullari orasida Toshkent va Xorazmda Tibbiyot haftaligi o'tkazildi. Haftalik doirasida 184ta o'zbek kasalxonalarida bemorlarni ko'rikdan o'tkazishdi, 80ta kasalxonada esa bepul operatsiyalar amalga oshirildi. Xususan, bu operatsiyalar Uralogiya 10ta, Bolalar jarrohligi 23ta, Yurak-qon tomir jarrohligi 10ta, Ginekalogiya 28ta, Ortopediya 9ta operatsiyalari o'tkazildi.

Faqat Tibbiyot sohasidagi loyihalar bilan cheklanib qolgani yoq. Boshqa sohalarda ham bir qancha loyihalar amalga oshirildi. Bulardan, yoshlar bizning kelajagimiz bolgani uchun ham Bolalar uchun TİKA tomonidan 2017-yil aprelda himoyaga muhtoj bolalarni bosh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va sport sohasida o'zlarini chiniqtirish maqsadida Bolalar sport kompleksi bunyod etildi. Ushbu kompleksda futbol, basketbol, stol tenis sohalariga ixtisoslashdi.

Bundan tashqari, Turk-İslom do'stligi merosiga oid Xiva, Samarqand va Buxoroda O'zbekiston bilan hamkorlikda belgilangan loyiha tarixiy asarlarni qayta tiklash va atrofni ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ta'lim sohasiga nazar

tashlasak, Samarqand Davlat Alisher Navoiy Unversiteti ichida Turk tili ta'lim markazi, talabalarni talaffuzi, eshitish va tarjimonlik mahoratini yaxshilaydigan bir til laboratoriyasi qurildi. Turizm sohasidagi loyihalardan biri, turizm salohiyati yuksak bo'lgan O'zbekistonda malakali ishchilarni ishlashi Sergile tumaniga yo'naltirildi. Sergili Turizm koleji qayta tamirdan chiqdi va namuma bolgan sinflar yaratildi. TİKA rahbari Dr. Serdar Jam va O'zbekiston Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi rahbari Aziz Abdulhakimov tomonidan ochilish marosimlari o'tkazildi.

Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasining talabi bilan 2017-yil 24-30-aprel orasida TİKA ni qo'llab quvvatlashi orqali Buxoro shahrida "Turizm va mehmonxona ta'lim programi" haqiqatga aylandi. Loyiha doirasida mehmonxona ish boshqaruvchisi, xizmat ko'rsatish, oshpazlik, servis xizmatlari va qavat xizmatlari bilan umumiy 120ta mehmonxona xodimlariga ta'lim berildi. Bu loyiha asosida Turkiya bilan tajribalar almashildi.

Birga hamkorlik qilgan sohalardan yana biri Politsiya ta'limidir. Politsiya ta'lim hamkorligi proqramlari doirasida, 2011yilda yana 28ta program asosida 600ta ishonchli xodimlar Turkiya va O'zbekistonda ta'lim berildi. Bu ta'lim ikki davlat o'rtasidagi bilim va tajribalarini almashish va temilalogik birlikni ta'minlash maqsadida ta'lim berishdi.

Bu yangilikni aytish shaxsan men uchun g'urur tuyg'usini his etaman, Amir Temur bu ham biz uchun ham turklar uchun balki butun dunyo uchun ham Buyuk Shaxs, Buyuk Sohibquron hisoblanadi. TİKAning lohiyalari asosida Amir Temur vaqfi qaytadan tiklandi, 2017-yil 13-14-sentabrda Toshkentda "Temuriylar davridagi ta'lim-bilim va madaniyat"



mavzusida TİKA dastagi bilan konfirensiya o'tkazildi. Bundan tashqari, turli xil siyosiy loyihalar amalga oshirildi.

Xulosa o'rnida nima demoqchiman, ikki qadimiy o'lka azaldan ota-bolalari qarindosh bo'lgan bizni yutimizni "ota yurt" deb hisoblaydigan turklar bilan hamkorliklarimizni yoritishga harakat qildim.

TİKA firmasi ko'plab sohalarda olib borgan loyihalar yurtimizni rivojlanishiga katta qo'llab quvvatlash bo'ldi desam adashmayman. Oradan 20yil o'tgandan

songra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiyaga tashrifida jami 26ta shartnomalar imzolangan. Ulardan, ta'lim, harbiy, tibbiyot, madaniyat, savdo, bankchilik, aviatsiya, tashish, inavatsiyalarni rivojlantirish sohalari. Bu shartnomalar ikki davlat o'rtasida aloqalarni yanada yaxshilash maqsadida amalga oshirildi. Men ishonamanki, bu hamkorlik albatta oxiri emas hali bunday shartnomalar juda ko'p bo'ladi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zME «Самарқандда Туркиянинг бош консулиги очилди — фото».
- 2.Bugun.uz. 15-Iyul 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2021 йил 7 март.
3. «Туркия ва Ўзбекистон ўртасида ҳарбий-молиявий ҳамкорлик тўғрисидаги битим тасдиқланди».
4. Bugun.uz. Qaraldi: 2021 йил 19 март.
5. «Сурхондарёда ўзбек ва турк ҳарбийлари махсус-тактик машғулотлар бошланди — фото».
6. Bugun.uz. Qaraldi: 22-Mart 2021-yil
7. O'zbekistan TİKA projeleri tanıtım kitapçığı.2018.

